QASHQADARYO VILOYATI IQTISODIY TARAQQIYOTIDA MEVA-SABZAVOTLAR EKSPORTINING O‘RNI

Raximov Baxtiyor Soatovich
Qarshi shahridagi Prezident maktabi
baxtiyorraximov2020@gmail.com.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyatining tashqi iqtisodiy aloqalari taraqqiyotida qishloq xo‘jaligining o‘rni masalasi tarixiy jihatdan tahlil qilingan. XXI asrda meva-sabzavotlarning eksporti natijasida hududdagi agrofirma, mas’uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy yutuqlari viloyatda ish o‘rinlarining saqlanib qolishi va yanada ko‘payishiga sabab bo‘lganligi statistik ma’lumotlar asosida dalillantirilgan.*

Kalit so’zlar: *Qashqadaryo viloyati, meva-sabzavot, xalqaro hamkorlik, eksport, tashqi bozor, iqtisodiy taraqqiyot.*

Abstract. *This article provides a historical analysis of the role of agriculture in the development of foreign economic relations of Kashkadarya Region. Based on statistical data, it demonstrates that the economic achievements of agricultural enterprises and limited liability companies in the region, resulting from the export of fruits and vegetables in the 21st century, contributed to the preservation and further expansion of employment opportunities in the region.*

Keywords: *Kashkadarya Region, fruits and vegetables, international cooperation, export, foreign market, economic development.*

Аннотация. *В данной статье в историческом аспекте проанализирована роль сельского хозяйства в развитии внешнеэкономических связей Кашкадарьинской области. На основе статистических данных доказано, что экономические достижения агрофирм и обществ с ограниченной ответственностью региона, достигнутые в результате экспорта плодоовощной продукции в XXI веке, способствовали сохранению и дальнейшему увеличению количества рабочих мест в области.*

Ключевые слова: *Кашкадарьинская область, плодоовощная продукция, международное сотрудничество, экспорт, внешний рынок, экономическое развитие.*

Kirish. Qashqadaryo viloyati qishloq xo‘jaligi sohasida rivojlantirilgan xalqaro hamkorlikning yana bir yo‘nalishi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini xorijga eksport qilish orqali tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirishdan iborat bo‘ldi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab viloyat qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yaqin va uzoq xorijiy mamlakatlarga eksport qilish orqali aholining iqtisodiy hayotini yaxshilashida muhim ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi anglab yetildi.

Adabiyotlar tahlili. Tadqiqot doirasida statistik va davriy matbuot ma’lumotlari tahlil qilinib, ularning ilmiy qiymati baholandi. Tahlil qilingan manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, XXI asr boshlaridan Qashqadaryo viloyatida qishloq xo‘jaligida islohotlarning samarali natijalarga ega bo‘lishida meva-sabzavotlarni xorijiy mamlakatlarga eksport qilinish ko‘rsatkichlarining oshib borishi iqtisodiy taraqqiyotga o‘z ta’sirini o‘tkazganligi ommaviy axborot vositalarida aks ettirilgan bo‘lsada, mazkur jarayon tarixiylik nuqtai nazaridan yetarli darajada tadqiq etilmagan. Mazkur holat ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyati qishloq xo‘jaligining taraqqiyotida meva-sabzavotlarni xorijga eksport qilinishining muhim ahamiyatga ega bo‘lganligi tarixiy jarayon sifatida o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, tarix faniga xos umumilmiy va maxsus metodlar asosida amalga oshirildi. Manbashunoslik yondoshuvi asosida davriy matbuot va statistik ma’lumotlar qiyosiy tahlil asosida o‘rganildi.

Natijalar tahlili va muhokamasi. “O‘zulgurjisavdoinvest” uyushmasi qoshida tashkil etilgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar va firmalar viloyat hududida yetishtirilgan meva va sabzavotlarni tashqi bozorlarga eksport qilish orqali mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga o‘z hissalarini qo‘shishdi. Xususan, 2014-2017-yillar mobaynida tashqi bozorlarga meva-sabzavotlar eksportini amalga oshirgan ayrim firmalar haqida quyidagi jadvalda[4] ma’lumot berilgan.

Firma nomi	**Tumani**	**Faoliyat davri**	**Eksport mahsulotlari**	**Tashqi savdo hamkorlari**	**Eksport qilingan mahsulotlar qiymati**
Oltin voha agroinvest	Koson	2014-2015-yillar	Qovun	Rossiya Federatsiyasi, Daniya, Norvegiya,	400 ming AQSh dollari

[4] Jadval tadqiqotchi tomonidan stastistik malumotlar asosida tuzildi.

				Germaniya, Latviya, Belorus, Polsha	
Chiroqchi agro meva ta’minot	Chiroqchi	2015-yil	“Aysberg” salat bargi	Rossiya Federatsiyasi	1 mlrd 867 mln so‘m
Viget impeks	Kitob	2015-2016-yillar	Gilos, o’rik, qaroli, uzum, karam, ko‘katlar	Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston	1 mln AQSh dollari
Lavr farm	G‘uzor	2016-2017-yillar	Quritilgan shvit	Rossiya Federatsiyasi, Ukraina	1 mln 814 ming AQSh dollari

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini xorijga eksport qilish ishlarini yo‘lga qo‘ygan firmalar olgan foydalari hisobidan zamonaviy qadoqlash texnologiyalarini xarid qilishib eksport imkoniyatlarini kengaytirishdi. Jumladan, 2014-yilda Koson tumanidagi “Oltin voha agroinvest” firmasi Italiyadan keltirilgan zamonaviy maxsus qadoqlovchi uskunadan foydalangan holda har bir qovunni gafro-kartonli qutilarga joylashtirdi va shu tariqa mahsulotga shikast yetkazilishining oldini oldi. Natijada bu firma Riga shahridagi savdo uyi orqali Daniya, Norvegiya, Germaniya davlatlariga ham qovun eksportini yo‘lga qo‘ydi[5]. 2016-yilda Shahrisabz tumanidagi “Shahrisabz meva-sabzavot” agrofirmasi meva-sabzavotlarni qayta ishlash maqsadida Xitoydan zamonaviy uskunalarni ham xarid qilgan[6]. 2021-yilda esa “Koson zamin export” MChJ mulkdorlari Koson tumanining Boyg‘undi mahallasida don va dukkakli ekinlar hosilini saralash, yeryong‘oq, kungaboqarni qovurish hamda qator qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlab qadoqlash liniyalarini ishga tushirgan. Turkiyaning “Ziroatbank” liniyasi asosida 1 mln 200 ming AQSh dollari kredit rasmiylashtirilib, “Akunjek tarim urinleri macinalari dic tic ltd cti” kompaniyasi bilan shartnoma tuzilib texnologik uskunalar xarid qilindi[7]. Umuman olganda, agrosohada amalga oshirilgan investitsion va eksport faoliyati hududning iqtisodiy rivojlanishi, bandlik darajasining

[5] “Qashqadaryo” gazetasi, 2014-yil 17-iyul 84-son.
[6] Jo‘rayev M. Daladanoq eksportga. // “Qashqadaryo” gazetasi, 2016-yil 18-iyun, 73-son.
[7] Xo‘jayev N. Eksport: mahsulotni zamonaviy ko‘rinishda taklif eta olish muhim. // “Qashqadaryo” gazetasi, 2021-yil 20-aprel, 31-son.

oshishi hamda tashqi savdo aloqalarining mustahkamlanishiga muhim omil bo‘lib xizmat qilgan.

2016-yil birinchi choragida viloyatdagi 14 ta tadbirkorlik subyekti tomonidan jami 1 mln 543 ming AQSh dollarilik ho‘l va quritilgan meva-sabzavot eksporti amalga oshirildi. 2016-yilda viloyat hududlarida yetishtirilgan 5 xil mahsulot – chaqilgan yong‘oq, rangli karam, rediska, shirin qalampir va tozalangan yeryong‘oq birinchi marta xorijga sotildi[8].

Yakkabog‘ tumani industriyasi ko‘p jihatdan agrar soha asosiga qurilgan. Tumanda bog‘dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik yetakchi soha hisoblanadi. 2017-yili Yakkabog‘ tumanidagi “Sharofat ona Qahramon qizi” agrofirmasi fermerlardan va aholidan meva-sabzavot, uzum, dukkakli ekinlar xarid qilib xorijga sotish orqali 546 ming AQSh dollar savdo ko‘rsatkichini qayd etdi. 2018-yilda esa xorijlik savdogarlar bilan 2 mln 700 ming AQSh dollarilik shartnoma imzoladi. “Yakkabog‘ uzum servis” agrofirmasi Germaniya davlatiga chaqilgan yong‘oq yetkazib berish bo‘yicha 80 ming AQSh dollarilik shartnoma imzolagan. “Yakkabog‘ logistikasi” MChJ 2017-yilda Rossiya va Turkiya davlatlariga 650 ming AQSh dollarilik qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilgan[9]. 2014-2017-yillarda viloyat tumanlarida faoliyat yuritgan korxonalar meva-sabzavot eksportini sezilarli darajada kengaytirdi. Yangi korxonalar tashkil etilishi, yirik shartnomalar tuzilishi va mahsulot turlarining ko‘payishi natijasida viloyatda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini xorijiy bozorlarga chiqarish hajmi va geografiyasi kengaydi hamda eksport salohiyati mustahkamlandi.

2018-yilda Dehqonobod tumanida “Zaher Taher Trading” MChJ nomi bilan afg‘onistonlik ishbilarmon sarmoyasi bilan tashkil etilgan xorijiy korxona o‘z faoliyatini boshladi. Bu korxona tomonidan hududda kavrak plantatsiyasi va bodomzor barpo etish uchun 200 ming AQSh dollari miqdoridagi mablag‘ investitsiya qilindi[10]. Afg‘oniston investorlari ishtirokida yangi xorijiy korxonaning tashkil etilishi hududga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimining kuchayganini ko‘rsatadi.

2018-yilda viloyatda achchiq qalampir yetishtirish ham yo‘lga qo‘yilgan. “Big agro filds” MChJ 25 tonna, “Big agro organik” MChJ 50 tonna, “Big agro eksport” MChJ 20 tonna quritilgan achchiq qalampir, uning urug‘i va maydalangan unini eksport qilgan. Meva-sabzavotlar asosan Turkiya, Xitoy, Rossiya Federatsiyasi, Indoneziya, Qozog‘iston, Eron va Afg‘onistonga eksport qilingan[11].

[8] Jo‘rayev M. Saralab, qutilarga joylangan mahsulot – eksportga. // “Qashqadaryo” gazetasi, 2017-yil 16-may 58-son
[9] Jo‘rayev M. Eksport salohiyati. // “Qashqadaryo” gazetasi, 2018-yil 19-may 59-son.
[10] “Qashqadaryo” gazetasi, 2018-yil 2-oktabr, 116-son.
[11] “Qashqadaryo” gazetasi, 2019-yil 23-aprel, 32-son

2019-yilning dastlabki 5 oyi davomida Qashqadaryo viloyati xorijga 20 ming tonna meva-sabzavotlarni eksport qilgan. Bu iqtisodiy ko‘rsatkichga o‘z ulushini qo‘shgan ba’zi tadbirkorlik subyektlari haqida quyidagi jadvalda[12] ma’lumot keltirilgan.

Tadbirkorlik subyekti nomi	**Tumani**	**Mahsulot nomi va miqdori**	**Eksport qilingan mamlakatlar**
“Yakkabog‘ obod yurt” fermer xo‘jaligi	Yakkabog‘	30 tonna o‘rik, 25 tonna olxo‘ri, 4 tonna shaftoli	Yevropa mamlakatlari
“Zaheer Taher trading” MCHJ	Dehqonobod	24 tonna o‘rik, 40 tonna mosh	Iroq
“Rajab xoji” fermer xo‘jaligi	Chiroqchi	Qovun va tarvuz	MDH mamlakatlari va Ukraina
“Europe line trading” MCHJ, “Aziz agro trans fayz” MCHJ	Muborak	Piyoz	Ruminiya, Germaniya, Bolgariya
“Nasaf trade invest”	Qarshi tumani	Gilos va o‘rik	BAA
“Beshchashmalik Yashnar” fermer xo‘jaligi	Chiroqchi	yeryong‘oq, bodom, mayiz, qovun, sabzi, anor, uzum	Qirg‘iziston
“Sho‘rtan agro trans” MCHJ	Qarshi shahri	quruq meva, olxo‘ri qoqisi, jiyda, mayiz	Turkiya va Ozarbayjon
“Obod Mirishkor eksport” MCHJ	Mirishkor	Qora uzum	Xitoy
“Nishon ko‘zgu” fermer xo‘jaligi	Nishon	40 tonna xurmo	Qozog‘iston
“Lavr-farm” MCHJ	G‘uzor	loviya, no‘xat	Eron, Afg‘oniston, Pokiston

Qashqadaryo viloyatidan xorij mamlakatlariga 2020-yilda 33,1 mln AQSh dollar[13], 2023-yilda 49 mln AQSh dollari[14], 2024-yilda 51,2 mln AQSh dollari[15]

[12] Jadval tadqiqotchi tomonidan statistik ma’lumotlar asosida tuzildi.
[13] Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi axborotnomasi,2020-yil, 18-19-bet
[14] Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi axborotnomasi,2023-yil, 108-bet
[15] Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi axborotnomasi,2024-yil, 16-bet

miqdoridagi meva-sabzavotlar eksporti amalga oshirildi. Asosiy xaridor mamlakatlar Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Afg‘oniston, Pokiston va Ukraina mamlakatlari bo‘lishdi. Bu faktlar Qashqadaryo viloyati qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining tashqi bozorlarda mustahkam o‘rin egallab borayotganligidan dalolat beradi.

Xulosa. Qashqadaryo viloyatidan meva-sabzavotlarni xorijiy mamlakatlarga eksport qilish hududning iqtisodiy taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Qishloq xo‘jaligida eksportbop meva-sabzavotlarni yetishtirishga katta e’tibor berila boshlandi. Viloyatda yangi ish o‘rinlari yaratildi. Sohada zamonaviy ishlab chiqarish uskunalari qo‘llanila boshlandi. Tashqi bozorda viloyat dehqonlarining yetishtirgan meva-sabzavotlari o‘z o‘rniga ega bo‘lib bordi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jo‘rayev M. Daladanoq eksportga. // “Qashqadaryo” gazetasi, 2016-yil 18-iyun, 73-son.

2. Jo‘rayev M. Saralab, qutilarga joylangan mahsulot – eksportga. // “Qashqadaryo” gazetasi, 2017-yil 16-may 58-son

3. Jo‘rayev M. Eksport salohiyati. // “Qashqadaryo” gazetasi, 2018-yil 19-may 59-son.

4. “Qashqadaryo” gazetasi, 2014-yil 17-iyul 84-son.

5. Qashqadaryo” gazetasi, 2018-yil 2-oktabr, 116-son.

6. “Qashqadaryo” gazetasi, 2019-yil 23-aprel, 32-son

7. Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi axborotnomasi,2020-yil, 18-19-bet

8. Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi axborotnomasi,2023-yil, 108-bet

9. Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi axborotnomasi,2024-yil, 16-bet

10. Xo‘jayev N. Eksport: mahsulotni zamonaviy ko‘rinishda taklif eta olish muhim. // “Qashqadaryo” gazetasi, 2021-yil 20-aprel, 31-son.